
Xursandchilik hozirdan o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham chuqur hayajonga solmoqda

Maktabimiz tashkil topganiga salkam 42 yil bo'ldi. Bu davrda muassasa juda ko'p voqealarga guvoh bo'ldi. Minglab o'quvchilarni qaldirg'och sifatida katta hayotga uchirma qildi. Ular nafaqat respublikamizning turli burchaklari, balki xorijda ham o'z ustozlarining ishonchini oqlab mehnat qilmoqdalar.

Maktabimiz o'quvchilari bir necha yillardan buyon bilimlar bellashuvi, Fan olimpiadasi, Respublika va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari, besh tashabbus tanlovlarida sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

Bu yutuqlar maktabimiz direktori M. Ismatova, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Sh. Mirazizova tomonidan ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirilgani hamda tashkil etilgani, qolaversa, tajribali ustozlarning fidokorona mehnati mahsulidir. Ular davlat ta'lim standartida belgilangan ustuvor maqsadlarni ko'zlagan holda "Dars — muqaddas" shiori ostida yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalardan samarali foydalangan holda saboq berib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 12-13 may kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari davomida berilgan topshiriqlariga asosan bizning maktab ham bir necha o'n yillikdan so'ng kapital ta'mir dasturiga kiritildi va yangi qiyofa kasb etdi.

2022-2023 o'quv yilini ilmsevar bolajonlarimiz ana shu zamonaviy uslubda ta'mirdan chiqqan hamda ilg'or uskunalar bilan jihozlangan maktabda boshlaydi. Ta'til davri bo'lishiga qaramay, bu xursandchilik hozirdan o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham chuqur hayajonga solgan. Shu kunning kelishini intiqlik bilan kutmoqdalar.

Bunday sharoitda bekamu ko'st ish boshlash biz, ustozlarga ham katta mas'uliyat yuklaydi, erishgan yutuqlarimizni yanada ko'paytirishga undaydi.

Axir, zamon talabiga mos xonalarida, barcha anjomlar bilan ta'minlangan sport zalda, barcha zarur adabiyotlar bilan boyitilgan kutubxonada faoliyat olib borish, izlanish, yangi ta'mirdan chiqqan faollar zalida 5 muhim tashabbusning birinchi bo'g'inida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ijod qilish kimga zavq bag'ishlamaydi, deysiz!!!

Mahbubaxon MAXSUDOVA,
26- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

2022-08-19 05:43:32